

## QDUning "Karakalpak tourism" loyihasi Britaniyaning "TRED" loyihasida ikkinchi o`rinni egalladi

Buyuk Britaniyaning O`zbekistondagi elchixonasi tomonidan Oliy ta`lim muassasalarida "TRED" loyihasi o`tkazildi.



Ushbu loyihada 65 ta oliy ta`lim muassasasining jamoalari ishtirok etdi. Shularning ichidan dastlab 12 tasi, keyinchalik esa 6 tasi saylab olinib ikkinchi bosqichga yo`l oldi.

Shu yilning 1-2 mart kunlari Toshkent shahrida ikkinchi bosqich bo`lib o`tdi. Bu bosqichda Berdax nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining magistratura bo`limi mudiri rahbarligidagi A.Gulimovning magistrlardan tuzilgan jamoasi ham ishtirok etdi va Respublika bo`yicha ikkinchi o`rinni egalladi.



QDU jamoasi tanlovda "Karakalpak tourism" loyihasi bilan qatnashdi. Universitet tarkibida tuziladigan bu loyihaning maqsadi Qoraqalpog' istonda ichki va ekoturizmni rivojlantirish hisoblanadi.

Jamoa a'zosi Sarbinaz Tureshovaning ma'lumot berishicha, tez orada ijtimoiy tarmoqlarda "Kar tour" loyihasi ish boshlaydi va bu orqali ular turistlarga Qoraqalpog' istonga 1,3,5 kunlik sayyohlik rejalarini taklif etishadi. E'tiborga molik jihati ularda gidlar bepul xizmat ko'rsatishadi.



Universitetda o'qiyotgan tarixchi, areolog, tarjimon va chet tillarining fakultetining talabalari shu loyiha orqali amaliyot o'tashadi.

*Ko'rib chiqildi:*

IZLASH

- 🏠
- 👤
- ✉

- [Vazirlar Kengashi](#)
- [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)

- [Vazirliklar va idoralar](#)
- [Shahar va tuman hokimliklari](#)
- [Hujjatlar](#)
- [Respublika mehmonlariga](#)
- [Elektron hukumat](#)
- [Interaktiv davlat xizmatlar](#)